

BIBIXONIM OBRAZINING BADIY IFODASI

Azimova Zebo Abdug'affor qizi

Ingliz tili o'qituvchisi

Central Asian Medical University

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20524377>

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek tarixiy nasrida Bibixonim obrazining badiiy talqini masalasi yoritiladi. Xususan, Shahodat Isaxonovanning “Bibixonim” va “Turon malikasi” romanlari misolida Bibixonimning ruhiy dunyosi, ayollik sha'ni, siyosiy tafakkuri, ma'naviy qudrati hamda tarixiy shaxs sifatidagi o'rni tahlil qilinadi. Shuningdek, obrazning badiiy ifodasida portret, ruhiy tasvir, dialog, tarixiy haqiqat va badiiy to'qima uyg'unligi kabi masalalar ilmiy jihatdan tadqiqetiladi.

Kalit so'zlar: Bibixonim, tarixiy roman, badiiy obraz, tarixiy haqiqat, ayol obrazi, ruhiy tasvir, portret, Shaxodat Isaxonova

Kirish:

O'zbek tarixiy nasrida Amir Temur va temuriylar davri bilan bog'liq obrazlar alohida o'rin egallaydi. Ayniqsa, Bibixonim obrazi o'zining tarixiy salobati, siyosiy tafakkuri, ayollik matonati va ma'naviy qudrati bilan ijodkorlar diqqatini jalb etib kelmoqda. Tarixiy manbalarda Bibixonim dono, oqila, ilm-ma'rifat homiysi sifatida tilga olinadi. Adabiy asarlarda esa u faqat tarixiy shaxs emas, balki murakkab ruhiy olamga ega badiiy obraz sifatida gavdalanadi. Bibixonim obrazi orqali yozuvchilar nafaqat tarixiy davr muhitini, balki ayol qalbining nozik kechinmalarini, jamiyatdagi mavqeini, muhabbat va sadoqat masalalarini ham ochib berishga harakat qiladilar. Shu jihatdan ushbu obraz o'zbek tarixiy romanlari poetikasida muhim o'rin tutadi. Adabiyotshunos D. Quronov badiiy obraz haqida quyidagicha fikr bildiradi: “Yozuvchi badiiy obraz vositasida o'zi anglagan haqiqatni estetik shaklda ifoda etadi” Ushbu nazariy qarash Bibixonim obrazining badiiy talqinini tushinishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Bibixonim tarixiy manbalarda Saroymulkxonim nomi bilan tilga olinadi. U Amir Temurning katta xotini bo'lib, davlat ishlarida faol qatnashgan, ilm-fan va madaniyat rivojiga katta hissa qo'shgan tarixiy shaxsdir. Samarqanddagi Bibixonim masjidi ham uning nomi bilan bog'liq ulkan me'moriy obidadir. Tarixiy manbalarda Bibixonimning dono, uzoqni ko'ra oladigan ayol sifatida tasvirlanishi yozuvchilar uchun boy badiiy material vazifasini bajargan. Xususan, Shahodat Isaxonovanning “Bibixonim” romanida ushbu tarixiy shaxsning ichki ruhiyati, hissiy kechinmalari va ma'naviy olami keng tasvirlanadi. Tadqiqotchi Gulbahor Mirzajonova “Shahodat Isaxonovanning portret yaratish mahorati (“Bibixonim” romani misolida)” maqolasida yozuvchining obraz yaratish mahoratini tahlil qilib shunday yozadi: “Asarda Bibixonimning tashqi qiyofasi bilan birga uning ruhiy dunyosi ham portret detallar orqali ochib beriladi” Darhaqiqat, yozuvchi Bibixonim obrazini faqat tashqi go'zallik orqali emas, balki uning tafakkuri, sabr-toqati, davlatparvarligi va ichki iztiroblari orqali ochishga intiladi. Tarixiy romanlarda ayol obrazini yaratish ijodkordan katta mahorat talab qiladi. Chunki tarixiy shaxs sifatidagi ayolning ichki dunyosini ochish uchun yozuvchi tarixiy haqiqat bilan badiiy to'qimani uyg'unlashtirishi zarur. Shahodat Isaxonova Bibixonim obrazini yaratishda aynan shu yo'ldan boradi. Asarda Bibixonim kuchli iroda sohibasi bo'lishi bilan birga nozik qalb egasi sifatida ham tasvirlanadi. U davlat taqdiri haqida qayg'uradigan, Amir Temurga sadoqat bilan xizmat qiladigan, ayni paytda insoniy dard va iztiroblarni yuragida yashiradigan ayol sifatida namoyon bo'ladi. Maqolalarda ta'kidlanishicha, yozuvchi Bibixonimning ruhiy olamini ochishda ichki monolog va psixologik tasvirlardan unumli foydalanadi. Tadqiqotchi Muxlisa Ma'rufjonova

quyidagicha yozadi: “Bibixonim obrazi orqali ayolning sabr-toqati, sadoqati, onalik mehri va davlat oldidagi mas’uliyati badiiy ifodasini topgan”.

Bibixonimning ruhiy kechinmalari tasviri asarda dramatismni kuchaytiradi. Ayniqsa, uning yolg‘izlik hissi, saroy muhitidagi murakkab munosabatlar, taxt va saltanat bilan bog‘liq tashvishlari obrazning psixologik chuqurligini oshiradi. Yozuvchi Bibixonimni faqat hukmdor ayol sifatida emas, balki muhabbat, sog‘inch, armon va iztirobni his qiluvchi tirik inson sifatida gavdalandiradi. Shu sababli obraz kitobxon qalbiga yaqinlashadi. Bibixonim obrazining badiiy ifodasida portret tasviri muhim o‘rin tutadi. Adib obrazning tashqi qiyofasini tasvirlash orqali uning ichki dunyosini ochishga harakat qiladi. Adabiyotshunoslikda portret badiiy obrazning xarakterini ochuvchi muhim vosita sifatida qaraladi. Yozuvchi Bibixonimning nigohi, yuz ifodasi, kiyinish uslubi, harakatlari orqali uning ulug‘vorligini ko‘rsatadi. Gulbahor Mirzajonova portret masalasiga to‘xtalib shunday yozadi: “Bibixonim portreti orqali yozuvchi malikaning nafaqat tashqi go‘zalligini, balki uning ma’naviy salobatini ham namoyon etadi”. Asarda Bibixonimning nigohi ko‘pincha sokin, ammo ma’noli tarzda tasvirlanadi. Bu esa uning ichki qudratini ifodalaydi. Yozuvchi mayda badiiy detallar orqali ham obraz xarakterini ochadi. Masalan, uning sukuti, mulohazali qarashlari yoki Amir Temur bilan suhbatlari orqali dono ayol qiyofasi shakllanadi. Badiiy detal vositasida yaratilgan ruhiy holatlar obrazning estetik ta’sirchanligini kuchaytiradi. Ayniqsa, saroy manzaralari, tarixiy muhit va Bibixonimning ularga munosabati orqali asarda tarixiy kolorit yuzaga keladi. Tarixiy roman janrining asosiy xususiyatlaridan biri tarixiy haqiqat va badiiy to‘qima uyg‘unligidir. Bibixonim obrazi talqinida ham ushbu ikki qatlam bir-birini to‘ldirib boradi. Tarixiy manbalarda Bibixonim davlat arbobi, ma’rifatparvar ayol sifatida qayd etilgan bo‘lsa, badiiy asarlarda uning insoniy kechinmalari kengroq ochiladi. Yozuvchi tarixiy faktlarni saqlagan holda obrazning ruhiy olamini badiiy fantaziya yordamida boyitadi. Tadqiqotchi Gulnoza Oripova “Turon malikasi” romanidagi obrazlar haqida fikr yuritarkan ekan, quyidagilarni ta’kidlaydi: “Tarixiy shaxslarning badiiy obrazga aylanishi ijodkorning estetik tafakkuri bilan bog‘liq jarayondir” Darhaqiqat, Bibixonim obrazining badiiy kuchi uning tarixiy haqiqat bilan uyg‘un holda tasvirlanganidadir. Yozuvchi uni idealizatsiya qilish bilan cheklanmaydi. Aksincha, obrazning ichki ziddiyatlari, iztiroblari va insoniy zaif tomonlarini ham ko‘rsatadi. Bu esa Bibixonimni tirik, hayotiy va ishonarli obraz darajasiga ko‘taradi. O‘zbek tarixiy romanlarida Bibixonim obrazi ko‘pincha millatning ma’naviy qudrati va ayol matonatining timsoli sifatida talqin qilinadi. U faqat tarixiy shaxs emas, balki xalqning ma’naviy xotirasida yashovchi ramziy obrazdir. Bibixonimning ilm-fanga homiyligi, davlat boshqaruvidagi dono maslahatchi sifatidagi faoliyati uning ma’rifatparvar ayol sifatida qadrlanishiga sabab bo‘ladi. Shu jihatdan obraz zamonaviy o‘zbek ayoli idealiga hamohang tarzda talqin qilinadi. Xurshid Davron asarlarida ham Bibixonim obrazi ayolning ma’naviy qudrati va sadoqati timsoli sifatida tasvirlanadi. Tadqiqotchilar Sayyora Latipova va Mashhura Ibodullayevalar shunday yozadilar: “Bibixonim obrazi orqali davlat va jamiyat hayotida ayollarning o‘rni hamda ta’siri badiiy jihatdan yoritiladi”. Bibixonim obrazi bugungi adabiy tafakkurda ham dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q. Chunki ushbu obraz orqali ayolning ijtimoiy faolligi, ma’naviy kuchi va milliy qadriyatlarga sadoqati ulug‘lanadi.

Xulosa qilib aytganda Bibixonim obrazi o‘zbek tarixiy nasrining yuksak badiiy yutuqlaridan biridir. Ushbu obraz orqali yozuvchilar tarixiy davr ruhini, ayol qalbining murakkab kechinmalarini, sadoqat va matonat kabi insoniy fazilatlarini chuqur badiiy talqin etadilar. Shahodat Isaxonova asarlarida Bibixonim nafaqat tarixiy shaxs, balki yuksak estetik ideal darajasiga ko‘tarilgan obraz sifatida namoyon bo‘ladi. Yozuvchi obrazning ruhiy olamini ochishda

portret, psixologik tasvir, dialog va badiiy detal kabi vositalardan mohirona foydalanadi. Bibixonim obrazi o'zbek adabiyotida ayolning ma'naviy qudrati, davlatparvarligi, donoligi va insoniy go'zalligining yorqin timsoli sifatida yashab kelmoqda. Shu sababli ushbu obrazni o'rganish nafaqat adabiyotshunoslik, balki tarix, madaniyat va gender tadqiqotlari uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. “Adabiyotshunoslik lug'ati”. – Toshkent: Akademy Nashr, 2010.
2. Mirzajonova G. “Shahodat Isaxonovanning portret yaratish mahorati (“Bibixonim” romani misolida)”. – Filologiya masalalari yosh tadqiqotchilar nigohida, 2024.
3. Ma'rufjonova M. “Shahodat Isaxonovanning “Bibixonim” romanida ayol obrazi orqali davr muammolarining badiiy talqini”. – Scientific Journal, 2025.
4. Oripova G. “Tarixiy romanlarda badiiy obraz talqini”. – ORIENS, 2025.
5. Latipova S., Ibodullayeva M. “Xurshid Davron tarixiy qissalarida Bibixonim obrazining badiiy ifodasi”. – Academic Research in Modern Science, 2024.
6. Shaxodat Isaxonova “Bibixonim” - Toshkent”
7. Shahodat Isaxonova. “Turonmalikasi”. – Toshkent